



THE IMPORTANCE OF ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN THE KASHKADARYA REGION

Azamat Jomurodovich Eralov

Associate Professor

Karshi State Technical University

E-mail: azamateralov2@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kashkadarya region, pilgrimage tourism, architectural monuments, Shahrisabz, Karshi, cultural heritage, religious value, historical monument, tourism infrastructure, economic development.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: This article analyzes the role and importance of architectural monuments in the development of pilgrimage tourism in the Kashkadarya region. It covers the historical, cultural and religious aspects of ancient architectural monuments in the region, their role as a spiritual value for pilgrims on a scientific basis. Architectural monuments in Kashkadarya are evaluated not only as a religious and spiritual center, but also as a factor in regional economic development and the development of international tourism relations.

QASHQADARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ME'MORIY OBIDALARNING AHAMIYATI

Azamat Jomurodovich Eralov

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

azamateralov2@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, ziyorat turizmi, me'moriy obidalar, Shahrisabz, Qarshi, madaniy meros, diniy qadriyat, tarixiy yodgorlik, turizm infratuzilmasi, iqtisodiy rivojlanish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida me'moriy obidalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda hududdagi qadimiy me'moriy yodgorliklarning tarixiy, madaniy va diniy jihatlar, ularning ziyoratchilar uchun ma'naviy qadriyat sifatidagi roli ilmiy asosda yoritilgan. Qashqadaryodagi me'moriy

obidalar nafaqat diniy-ma'naviy markaz, balki hududiy iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro turizm aloqalarini rivojlantirish omili sifatida baholangan.

ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ В РАЗВИТИИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Азамат Жомуродович Эралов

Доцент

Каришинского государственного технического университета

azamaterialov2@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые

Кашкадарьинская область, паломнический туризм, архитектурные памятники, Шахрисабз, Карши, культурное наследие, религиозная ценность, исторический памятник, туристическая инфраструктура, экономическое развитие.

слова:

Аннотация:

В статье анализируется роль и значение памятников архитектуры в развитии паломнического туризма в Кашкадарьинской области. На научной основе рассматриваются историко-культурные и религиозные аспекты древних архитектурных памятников региона, их роль как духовной ценности для паломников. Архитектурные памятники Кашкадарьи оцениваются не только как религиозный и духовный центр, но и как фактор регионального экономического развития и развития международных туристических связей.

Kirish. Ziyoratgohlarga tashrif turizm sohasi bilan bog'liq bo'lib, bu soha XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylangan. Hozir u avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizm sohasini rivojlantirish milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Istiqlol yillarida mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda O'zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo'lmish Qashqadaryo viloyatida joylashgan ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarining ham o'рни beqiyosdir. Viloyatdagi tarixiy, arxitektura, va arxeologik obidalar, qadamjolar hamda o'ziga xos madaniy va etnografik an'analar mintaqa turizm hazinasi hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mazkur masala yuzasidan X.Soatov, Y.Ahmadaliyev, O.Ismoilov, A.Berdiyev, S.Ruziyevlar o'z tadqiqotlarida turizm bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar keltirishgan.

Tadqiqot va tahlil. Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida madaniy meros obyektlari soni 1468 tani tashkil etib, vohaning ziyorat turizmi sohasidagi o'рни naqadar beqiyos ekanligini

ko'rsatib turadi. Ushbu obyektlar orasidan 34 tasi viloyat madaniy meros boshqarmasi tomonidan alohida tarzda tanlab olingan bo'lib, ushbu hududlarga mahalliy va xorijiy sayyohlar doimiy tarzda tashrif buyurishadi[5].

Odina masjidi. Qarshi shahridagi yirik tarixiy yodgorliklardan biri Odina masjidi. XIV asrning to'rtinchi choragi, ya'ni 1385-1386 yillarda Sohibqiron Amir Temur Qarshida qishlab uning markazida vayron bo'lgan Kebekxon saroyi o'rnida masjid qurdirgan. Mazkur qadimiy inshoot Registon majmuiga kirgan me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan. Odamlar namoz o'qib, farzandlari, yaqinlari uchun Allohga shukronalik keltirish uchun tashrif buyuradigan maskan hisoblangan. Bunday diniy imorat Markaziy Osiyoda yagona bo'lib, uning qurilish uslubi boshqa hech qayerda uchramaydi. Ayni paytda masjidda qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etilgan bo'lib, ushbu muzeyda O'zbekistonning mustamlaka davri, mamlakat mustaqilligi, erk va ozodligi uchun kurashgan xalqimizning minglab vatanparvar va fidoiy farzandlarining taqdiri, ularning og'ir qismlari haqida ma'lumot beradi.

Qarshi sardobasi. Registondan janubroqda, Odina masjidiga yaqin joyda Qarshi sardobasi joylashgan. U suv yig'ish ombori vazifasini bajargan. Mazkur tarixiy inshootning bunyod etilish tarixi XIV-XVI asrlarga nisbat berilsa-da, soha olimlarining so'nggi yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida imorat Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan degan xulosaga kelinmoqda. Mintaqaning iqlimi ancha qurg'oqchil bo'lganligi sababli, hudud aholisining sardobalarga ehtiyoji yuqori bo'lgan. Mazkur sardobaning yana bir xususiyati shundaki, u yomg'ir yoki qor suvlari bilan emas Fayzobod arig'ining (Qashqadaryodan suv olgan) suvidan to'ldirilgan. Sardoba XX asr boshlariga qadar faoliyat yuritgan, hozir esa foydalanilmay kelinayotganligi sababli ichkariga kirish va tarixni ko'z bilan ko'rish mumkin. Binoning ichki qismida ajoyib akustika, shuningdek, suv olish uchun teshikda g'ayrioddiy yog'och bo'laki bor[3].

Qadimiy Qarshi ko'prigi. Boy tarixga ega qadimiy ko'prik. Uning bir necha nomi bor. Amir Temur ko'prigi, Shayboniylar ko'prigi, Qashqadaryo ko'prigi. Mazkur tarixiy inshootni bunyod qilish tarixini Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog'lanadigan manbalar ham mavjud. Shu bilan birga, qadimiy inshoot 1583-yilda Buxoro xoni Abdullaxon II tashabbusi bilan qayta ta'mirlanib bugungi ko'rinishga keltirilgan. Mazkur tarixiy ko'prik nafaqat shahar aholisi uchun, balki savdo karvonlari uchun ham qulay o'tish joyi hisoblangan. O'sha paytda Qarshi savdogarlar uchun muhim to'xtash joyi bo'lgan. O'shandan beri ko'prik shaharning ramzi bo'lib kelgan. Uning uzunligi 122 metr, kengligi 8 metr, suv ustida balandligi 5 metr va 10 ta tutashtiruvchi kamarlardan tashkil topgan. Olim va sayyoh German Vamberining yozishicha, 1860-yillarda Qarshi shahrida 10 ta karvonsaroy, katta bozor, shahar aholisi dam oladigan bog' bo'lgan. U bunday bog'ni boshqa yurtlarda uchratmaganini alohida qayd etgan. O'rta Osiyoning qadimgi inshootlaridan hisoblangan ko'prik asosan pishiq g'isht va mustahkamlovchi qorishmalardan iborat bo'lgan, unda 12 ta

pillapoya va 14 ta ravoq ko‘rinib turgan. Vaqt o‘tishi bilan daryoning o‘zani kengayadi, ko‘priknı uzaytirish va qayta ta‘mirlash zarurati tug‘iladi. Shu tufayli 1914 yilda ko‘priknı har ikki tarafidan qo‘shimcha qismlar qurilgan hamda kirish joyida pishiq g‘ishtdan ikkita qorovulxona barpo etilgan. Ular yuk transporti harakatiga xalaqit berganligi uchun 1970 yilda buzib tashlangan, lekin 2005 yilda yana qayta tiklangan. Inshoot juda puxta, mustahkam qurilgan bo‘lib, o‘zbek me‘morchiligidagi muhandislik sohasida dadil qadam hisoblanadi. Tarixiy ma‘lumotlar shundan dalolat beradiki, Qashqadaryo ko‘prigi ustidan makedoniyalik Iskandar qo‘shinlari, aravalari, arablar, Chingizxon, Amir Temur, Bobur, Shayboniyxon suvoriylari ham o‘tgan.

Abu Ubayd ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi. Mazkur tarixiy yodgorlikning bunyod etilish tarixi XIV asrning so‘nggi choragida Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog‘lanadi. Naql qilinishicha, yengilmas sarkarda Amir Temur arab mamlakatlari (Iordaniya)ga qilgan yurishlarida mashhur tabib Abu Ubayda ibn al-Jarroh xokini olib kelib Qashqa vohasida dafn etgan. Mashhur tarixiy shaxs Abu Ubayda buyuk lashkarboshi, Ollohning Rasuli Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning hamrohi va tabibi bo‘lgan. Afsonaga ko‘ra, u o‘q bilan yaralangan payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ni davolagan. Majmua XIV asrda qurilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida, ya‘ni 2012 yilda qayta ta‘mirlanib tarixiy inshoot hududida keng ko‘lamli bunyodkorlik va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Qadimiy hammom. Qarshining Eskishahar bozori yaqinida joylashgan mazkur tarixiy inshoot XVI asrga oid bo‘lib, Buxoro, Samarqand va Shahrisabzdagi o‘rta asrlarga monand qilib bunyod etilgan Sharq me‘morchiligining noyob namunasi hisoblanadi. Qarshi hammomining yana bir xususiyati shundaki, issiqlik mo‘tadil bo‘lishi uchun hammom yer yuzasidan 3 metr pastroq qurilgan. Tarixiy hammomning gumbazi baland, katta xonadan issiq bo‘lmaga o‘tilgan. Tagxonadan yoqilgan olov toshni qizdirgan. Toshning davolash xususiyati borligi sababli bel, suyak og‘riqlariga duchor bo‘lgan kishilar uning ustiga yotishgan va shifo topishgan. So‘nggi yillarda soha olimlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida mazkur qadimiy hammom Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan 1594-1595 yillar davomida bunyod ettirilganligi ma‘lum bo‘ldi. Tarixiy inshoot deyarli o‘zining qadimiyligini saqlab qola olgan.

Natija va muhokamalar. Ko‘kgumbaz masjidi. Mazkur tarixiy nomozgoh XVI asr oxirida qurilgan. Ko‘kgumbaz masjidi Qarshi Registonidan taxminan 1,5-2 km. uzoqlikda joylashgan bo‘lib, mahalliy aholi vakillari ibodat qilishlari uchun bunyod etilgan. Xalq orasida bu qadimiy inshoot bir necha nomlar bilan ataladi. Xususan, Namozgoh, Juma masjidi, Eski masjid, Katta masjid, Abdullaxon masjidi shular jumlasidan. Bino o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligi bilan bu yerga tashrif buyuruvchilarni hayratga soladi. Ko‘hna masjid asosiy binosining tarxi to‘g‘ri burchak shaklda bo‘lib, 38.25 metrga teng. Binoning bezaklariga e‘tibor berilsa, uning qoplamalariga moviy, ko‘k, zangori va oq rangli koshinlar hamda silliqlangan g‘ishtlar ishlatilgan.

Tarixiy manbalardagi qaydlarga ko'ra, ushbu qadimiy imoratning bunyod etilish tarixi Buxoro xoni Abdullaxon II nomi bilan bog'liq[3].

Bekmurodboy madrasasi. Mazkur qadimiy yodgorlik Bekmurodboy tomonidan 1911 yilda Qarshi qal'asining bosh maydoni Registonning shimol tomonida bunyod etilgan. Madrasa peshtoqidagi tarixiy bitik shu haqda ma'lumot beradi. Marmar lavhada forsiy tilda madrasa sohibi va uni qurgan me'morning ismi sharifi hamda tarxi yozilgan. Tarixiy inshootning ikki qavatli bo'lib, bo'yi 24 metr eni 20,5 metr hajmga ega, pishiq g'ishtdan qurilgan. Ko'hna madrasaning tarxi Buxoro madrasalarini eslatadi. Imoratning hovlisi katta bo'lib, tolibi ilmlar uchun atab qurilgan hujralar soni 23 tani tashkil etadi. Bekmurodboy madrasasi mahalliy aholi orasida Bekmir qozoq madrasasi nomi bilan ham ataladi. Hozirgi kunda madrasa binosida Xalqaro Oltin Meros xayriya jamoat fondining Qashqadaryo viloyat bo'limi faoliyat olib bormoqda

Abul Muin an-Nasafiy majmuasi. Viloyat markazidan 17 kilometr janubi-g'arbda, ya'ni Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog'i joylashgan. Mazkur qishloqda Abul Muin an-Nasafiy nomli ziyoratgoh mavjud. Abul Muin an-Nasafiy ziyoratgohida Xitoy ipak qog'oziga bitilgan Qur'oni karim qo'lyozmasining nusxasi mavjud. Bu muqaddas kitobning bo'yi 60 sm., eni 41 santimetрни tashkil etadi. Mazkur Qur'on uchun usta Zarif degan kishi tomonidan balandligi 1,6 m.ni tashkil qiladigan lavh yasalgan. Lavhda hijriy yil hisobi bilan 1266 (milodiy yil bo'yicha 1851) sanasi yozib qoldirilgan. 12 qatordan iborat forsiy she'r lavhga o'yib bitilgan. Bu tarixiy obida hududida bir nechta qadimiy inshootlar mavjud bo'lib, xususan, ko'hna tashqi hovli, bir-biriga yondosh bunyod etilgan hujralar, qadimgi toshquduq, tarixiy masjid hamda to'rtburchak shakldagi katta hovuz shular shumlasidandir. Ziyoratgohga yaqin joyda katta qabriston joylashgan bo'lib, ikkala tarixiy inshootlarning hududini qo'shib hisoblaganda hududi 50 gektardan ko'proq maydonni tashkil qiladi. Mazkur ko'hna qabristonda 100 dan ortiq har xil marmar toshlarga bitilgan yodgorliklar joylashgan. Ziyoratgoh Yurtboshimiz SH. Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2021 yilda qayta rekonstruksiya qilinib, oktabr oyida ularning tashriflari bilan qaytadan ochildi. Hozirgi kunda ziyoratgoh ichida kutubxona va muzey ham tashkil etilib faoliyat yuritmoqda.

Langar ota majmuasi. XV-XVI asrlarga taaluqli bo'lgan noyob me'moriy majmua Qamashi tumanining Langar qishlog'ida joylashgan. Maqbarada «Langar ota» nomi bilan tanilgan Shayx Muhammad Sodiq (1460-1545), otasi shayx Abul Hasan va avlodlari dafn etilgan. Mazkur muqaddas qadamjo qadimiy maqbara va ko'hna masjiddan iborat. Ulug' shayxga atab qurilgan tarixiy maqbaraning bunyod etilish tarixi Buxoro xoni Abdullaxon II nomi bilan ham bog'lanadi. Shu bilan birga, bu muqaddas qadamjoda islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karimning noyob (mahalliy aholi tomonidan mazkur kitob kiyik yoki buzoq terisiga yozilganligi ta'kidlanadi) nusxasi saqlanib kelingan. Muqaddas bu maskanda asrlar osha turli xil rivoyatlarga

sabab bo'lgan Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning muborak to'nlari (Hirqai muborak)ning mavjud bo'lganligi to'g'risidagi afsonalar ham mavjud.

Eski Langar ota ziyoratgohi. Janub gavhari xisoblanmish Qashqa vohasi hududida Langar so'zi bilan bog'liq bir nechta muqaddas ziyoratgoh yoki joy nomlari mavjud. Ulardan biri Chiroqchi tumanidagi Langar ota ziyoratgohi hisoblanadi. Mahalliy aholi mazkur ko'hna maqbarani xonaqoh ham deb ataydilar. Mazkur muqaddas qadamjo tepalik ustida joylashgan bo'lib, u ikki ko'hna xonaqohdan iborat.

Tarixiy-me'moriy obidani soha olimlari XVI asrning oxiri XVII asrning boshlariga taalluqli ekanligini ta'kidlaydilar. Eski Langar xonaqohi me'moriy jihatidan Buxoro me'morchiligiga yaqindir. Qadimiy inshootning chortoq xonalari peshtoq-gumbazli bo'lgan ancha yirik (17,4 x 11, 8 x 9 m.)ni tashkil qiladigan imorat hisoblanadi. Tarixiy xonaqohlarda jami sakkizta sag'ana joylashgan bo'lib, ularning barchasi ganch bilan suvalgan. Eski Langardagi dahmalarda dafn etilganlarning ayrimlari Qamashi tumanining Langar ota ziyoratgohidagi Ishqiya tariqatining mo'tabar shayxi Abul Hasan Ishqiyning avlodi ekanligi to'g'risida ham manbalar mavjud. So'nggi yillarda mazkur muqaddas qadamjo hududida qisman ta'mirlash va qayta tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Qusam ota majmuasi. Tarixiy me'moriy inshootlar jamlanmasi hisoblanmish mazkur yodgorlik bir necha asrlar davomida, ya'ni XI-XIX asrlarda bunyod etilgan. Qusam ota ziyoratgohi Qarshi shahridan 15 km. shimoli-g'arbda, qadimgi ipak yo'lining bir tarmog'i hisoblangan Koson tumani Pudina qishlog'i markazida joylashgan. Mazkur qadimiy majmua ko'hna masjid, tahoraxona, ziyoratxona, uch darvozaxona, katta-kichik bir necha maqbaralar, toshquduq kabi imoratlardan iborat. Markazida Qusam shayx Hazratlarining maqbarasi, ziyoratxona va ikki kichik dahma, uning oldida XVI asrga oid to'qqiz gumbazli masjid joylashgan. Masjid oldidagi yo'lakdan Sevinch ota maqbarasiga o'tiladi. Uning oldida Qusam ota dahmasi, Mansur Muhammad hamda Isoq ota maqbaralari ham joylashgan. Qusam ota majmuasi 1990-1995 yillarda qisman ta'mirlangan bo'lsa, mazkur muqaddas qadamjo hududida 2018 yildan buyon keng ko'lamdagi qayta tiklash, mustahkamlash hamda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Sulton Mir Haydar ota majmuasi. Kasbi tumanidagi mazkur tarixiy-me'moriy yodgorlikning asosiy qismi XI-XVI asrlarda bunyod etilgan. Majmua bunday nom bilan atalishi saidlar, ya'ni Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning avlodi hisoblanmish Mirhaydar ota nomi bilan bog'liqdir. Qadimiy inshoot bugungi kunda yopiq va yarim ochiq binolar, uch hovlidan iborat bo'lib, keng sahnli janubiy hovlidan qator ustunli XVI asrga taalluqli masjidga kirilgan. Hovlining shimoli-sharqiy tomonida ko'hna maqbaralar, janubi-g'arbiy tomonida XV-XVI asrlarga oid ayvon joylashgan. Mazkur qadimiy ayvon (11,6 x 6,6 m.)ni tashkil etadi[4].

Shu bilan birga, hovlida XIV-XVI asrlarga taalluqli marmar sagʻanalar ham joylashgan. Maqbaralar uch xonadan iborat boʻlib, mazkur tarixiy xonalar chor qirrali taxmon va ravoqlarga ajratilgan. Devorlaridagi kichik mehrobiy uchta tokcha oraligʻida chiroqlar uchun tutun yoʻli ishlangan. Ravoqlarning burchak bagʻallari mayda muqarnaslar bilan bezatilgan. Birinchi maqbaraning oʻlchami (3,3 x 3,3 m.)ni tashkil etib, unda Said amir Shamsiddinbek hoji al-Haydar sagʻanasi joylashgan. Dahma toʻq kulrang marmardan ishlangan boʻlib, unda 897 hijriy (1491 milodiy) yil qayd etilgan. Ikkinchi maqbaraning hajmi esa (5 x 5 m.)ni tashkil qilib, unda shaxsi nomaʼlum uchta sagʻana mavjud. Maqbara gumbazli, burchaklariga bezak sifatida besh qirrali gʻishtin muqarnaslar terib chiqilgan. Oʻrtadagi hovlining sharqiy tomonida hajmi 4,4 x 4,4 m.ni tashkil qiladigan Ahliboy maqbarasi joylashgan. Manbalarda mazkur qadimiy imorat taxminan XIV asrlarda bunyod etilganligi taʼkidlanadi.

Xulosa. Milliy qadriyatlarimizning bir boʻlagi boʻlgan ziyorat turizmi jahon miqyosida Oʻzbekiston hududi shunday tarixiy qadriyatlar makoni boʻlganligini, oʻlkada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ruyobga chiqarayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajak barpo etishda, bugungi dunyoni yangi koʻz bilan koʻrish, uni yangicha tafakkur bilan idrok etish jarayonlarida, ulugʻ ajdodlar merosi bilan tanishishi lozimligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 06.02.2018-y., 06/18/5326/0657-son.
3. Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari.
4. Oʻzbekiston Davlat statistika qoʻmitasining materiallari asosida.
5. Ogʻzaki tarix materiallari. Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi boshligʻi Xislat Hatamov bilan suhbat. 2022-yil 6-sentabr.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli — “Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 15.08.2019-y., 06/19/5781/3567-son.